

# **ROSSIYA MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA FARG‘ONA**

## **VODIYSIDAGI IJTIMOIY HAYOT**

*Jo’rayev X. Ijtimoiy fanlar kafedrasи  
Namangan Muhandislik – Qurilish instituti*

**Annotatsiya:** Turkiston general gubernatorligi o‘lkada, xususan Farg‘onada mustabid ma’muriyat harbiy-politsiya boshqaruviga tayanib, o‘z hukmronligini amalga oshirar edi. Shu bilan birga ular o‘zlarini Turkistonning cheksiz huquqli hukmdorlari, deb hisoblaganlar. Rossiyada rivojlanib borayotgan yengil sanoatining asosiy xom ashyosi paxta O‘rta Osiyodan keltirilgan. Bu mahalliy dehqonlarning donli ekinlar ekishini qisqartirdi. Shu bilan birga Turkiston bozorlari Rossiyada ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari bilan to‘ldirildi natijada o‘lka hunarmandlari ijtimoiy ahvoli yanada og’irlashdi.

**Kalit so’zlar:** Podsho Rosiyasining mustamlakachilik siyosati, ruslashtirish siyosati, isloh, milliy, siyosat, tazyiq, imperiya, mahalliy xalq, boshlang’ich mакtab.

## **SOCIAL LIFE IN THE FERGANA VALLEY DURING RUSSIAN COLONIALISM**

*Djoraev Kh. Department of social sciences  
Namangansky Engineering and Construction Institute*

**Abstract:** The Turkestan Governorate General exercised its rule in the country, especially in Fergana, relying on the authoritarian military-police administration. At the same time, they considered themselves the unlimited rulers of Turkestan. The main raw material for the developing light industry in Russia was cotton, which was imported from Central Asia. This reduced the cultivation of grain crops by local farmers. At the same time, the Turkestan markets were filled with industrial products manufactured in Russia, as a result of which the social situation of local artisans became even worse.

**Keywords:** colonial policy of Tsarist Russia, Russification policy, reform, national, politics, oppression, empire, indigenous people, primary school.

Farg‘ona vodiysi Turkiston general-gubernatorligidagi paxta yetkazib beruvchi asosiy viloyati hisoblanib, mustamlakachilik davrida paxta etishtirish va uni dastlabki qayta ishlash korxonalari Turkistonda muhim ahamiyatga ega bo’ldi.

Podsho Rossiyasida rivojlanib borayotgan to‘qimachilik sanoatida paxta xom ashysiga bo‘lgan ehtiyoj Amerika paxta navi uchun yangidan-yangi paxta plantatsiyalarining vujudga kelishini taqozo etar edi. Shundan so‘ng, paxta ekin maydonlari kengaydi va u asosiy ekin turiga aylandi. Shu bois, Farg‘ona viloyatida paxta ekin maydonlari kengayib bordi. 1899 yilning o‘zida buning uchun ajratilgan maydonlar 40 foizga ko‘paygan. Birgina Marg‘ilon uyezdida 30 000 desyatina yerga paxta ekilgan<sup>1</sup>.

Farg‘ona vodiysida ham mahalliy xalqning kambag‘allashuvi kuchaydi, yeridan ajragan ziroatkorlar ko‘payib bordi. Misol uchun, viloyatda 1908 yilning o‘zida 18 % oila o‘zining dehqonchilik maydonlariga ega emas edi. 1911 yilda paxta ekin yerlari Namangan uyezdida 45 ming gektarga yetdi. Vaholanki, 1899 yili paxta ekiladigan yerlar 14 ming gektarni tashkil etar edi xolos<sup>2</sup>.

Xalqning davlat banklaridan olgan qarzlari miqdori yil sayin ortib borar edi. Misol uchun, Turkiston dehqonlarining banklardan 1912 yildagi qarzlari 156 mln. 712 ming rublni tashkil etgan bo‘lsa, shundan 80 mln. 979 ming rubl pul Farg‘ona viloyati ziroatkorlari zimmasiga tushar edi<sup>3</sup>.

Tabiiyki, bunday holatlar asosiy mashg‘uloti paxtachilik bo‘lgan ziroatkorlarning moliyaviy jihatdan kasod bo‘lishiga olib keldi.

Butun Turkistonda bo‘lgani kabi, Farg‘ona viloyatida ham mustamlaka ma’muriyati tomonidan ijtimoiyadolatsiz bo‘lgan tartib qoidalarga amal qilinar edi. Bir xil ko‘nikma hamda tajribaga ega bo‘lgan mahalliy xalq vakili bo‘lgan

1Зиёев Х. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX аср иккинчи ярми XX аср бошлари).-Тошкент: Шарқ, 2006.-Б. 93. (352 б.)

2Абдуллаев О. Наманган вилояти (Табиати, аҳолиси, хўжалиги).-Наманган: Наманган вилояти ноширлик бўлими, 1995.-Б.48.

3Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига карши кураш.-Тошкент: Шарқ, 1998.-Б. 400-401.

ishchining maoshi rus ishchisining maoshiga nisbatan 40-50 foizga kam edi. Misol uchun, tujor F. I. Polinskiyning paxta tozalash korxonasida yevropalik ishchi 70 rubl maosh olgan bir damda, mahalliy xalq vakili bo‘lgan ishchi 11 rubl, o‘siprin esa 6 rubl haq olar edi. Qo‘qondagi aka-uka Vadyayevlar paxta tozalash zavodida ham shundayadolatsizlikni kuzatish mumkin. Masalan, 1912 yil rus ishchisining bir kunlik ish haqi 2 rub. 80 kop. Tashkil etgani holda, mahalliy ishchi 70 kopeyekdan 1 rublga qadar haq olar edi xolos<sup>4</sup>.

Farg‘ona viloyatida ana shunday sharoitda nafaqat dehqonlarning, balki ko‘plab hunarmandlarning ham ahvoli achinarli tarzga tushib qoldi. Buning asosiy sababi, metropoliya sanoati ishlab chiqargan uy-ro‘zg‘or buyumlari, ya’ni, aksariyat holda yengil sanoat mahsulotlari bilan o‘lka bozorlarining to‘ldirilishi edi. Ushbu tovarlar o‘lka bozorlaridagi mahalliy hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni siqib chiqara boshladi. Oqibatda esa, mahalliy hunarmandchilikning ko‘plab turlari inqirozga yuz tutdi. Bu esa mahalliy hunarmandlarning yanada qashshoqlashuviga sabab bo‘ldi.

Farg‘onaning mashhur taraqqiy parvarlaridan Oidjon Mahmudov mahalliy iqtisodiyot, sanoat, savdo va hunarmandchilik masalalariga o‘z munosabatini bildirib o‘tgan edi. U Qo‘qondagi milliy hunarmandchilik turlaridan biri, mahalliy qog‘oz ishlab chiqarish hunarmandchiligi to‘xtalib, bu hunar kasod bo‘layotganligini, avvallari Farg‘ona vodiysiga qog‘oz xorijdan emas, balki Turkistonning o‘zida, aynan Qo‘qonning o‘zida ishlab chiqarilganligini yozadi. Muallif ushbu qog‘ozlar shu yerning o‘zida tayyorlanishi bilan birga, ham arzon ekanligini yozgan edi. Hunarmandchilikning ushbu turi Qo‘qonning «Mo‘yi Muborak» mavzeida rivojlangan bo‘lib, xonliklar davrida bu yerda 10-15 atrofida qog‘oz objuvozlari mavjud bo‘lgan. Qog‘oz ishlab chiqarish hunarmandchiligining yo‘q bo‘lib ketishini oldini olish maqsadida Obidjon Mahmudov mustamlaka ma’muriyatiga murojaat ham qiladi: «....Balki hukumatga bir yaxshi foidalik ish bo‘lib qolsa ham ajab emas... yana besh-o‘n yil ahamiyat berib shul ishni

<sup>4</sup>История Коканда (С момента присоединения Средней Азии к России до настоящего времени).- Ташкент: Фан, 1984.-С. 35.

ochmasalar, ehtimolki, nazardan shul kasbg‘a ayb bo‘lub yo‘q bo‘lib ketsa ham ajab emas»<sup>5</sup>.

Mahalliy aholining iqtisodiy-moliyaviy qiyinchiliklari oxir-oqibatda norozilik chiqishlarining kelib chiqishiga ham sabab bo‘lgan. Masalan, 1902-1904 yillarda Farg‘ona viloyatining Pomirbo‘yi tumanlarida dehqonlarning chiqishlari, 1903 yil yanvar-aprel oylarida Qo‘qonning Isfara, Ganjiravon volostlarida, Marg‘ilonning Avval va Chimyon volostlarida mahalliy boshqaruvchilarga qarshi xalqning ko‘tarilishlari bo‘lib o‘tgan<sup>6</sup>.

Shuning uchun ham Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori uyezd boshliqlari hamda boshqa amaldorlarga 1904 yilning 13 fevralida maxsus ko‘rsatma bilan murojaat qilgan. Unda ko‘rsatilishicha, viloyat aholisining siyosiy qarashlari, ma’muriyatga nisbatan xayrixohligi qay darajada ekanligi va boshqa jihatlarni doimiy kuzatib borish zarurligini, lozim bo‘lgan taqdirda esa ayg‘oqchilar qo‘yish lozimligini tavsiya etadi.

Turkistonda, xususan Farg‘onada mustabid ma’muriyat o‘lkani harbiy-politsiya boshqaruviga tayanib, o‘z hukmronligini amalga oshirar edi. Shu bilan birga ular o‘zlarini o‘lkaning cheksiz huquqli hukmdorlari, deb hisoblaganlar. Bu esa, mustamlakachilik siyosatini uzoq va davomli bo‘lishini ta’minlashi lozim edi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:**

1. Абдуллаев О. Наманган вилояти (Табиати, аҳолиси, хўжалиги). - Наманган: Наманган вилояти ноширлик бўлими, 1995.
2. Зиёев X. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX аср иккинчи ярми XX аср бошлари). -Тошкент: Шарқ, 2006.
3. Зиёев X. Туркистонда Россия тажоввузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. -Тошкент: Шарқ, 1998.
4. История Коканда (С момента присоединения Средней Азии к России до настоящего времени). -Ташкент: Фан, 1984.

<sup>5</sup>Қозоқов Т. Фаргоналик жадид тақдири //Ўзбекистон адабиёти ва санъати.-1999.-6 августъ.

<sup>6</sup>Касымбеков К. Ф. Из истории народных движений в Фергане в конце XIX-начале XX века. - Ташкент: Фан, 1978. - С.70.

5. Қозоқов Т. Фарғоналик жадид тақдирি //Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -1999.-6 августъ.

6. Касымбеков К. Ф. Из истории народных движений в Фергане в конце XIX-начале XX века. - Ташкент: Фан, 1978.